

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI

tayyorlash va himoya qilish bo‘yicha

DASTURI

**60111200-Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim
yo`nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun**

Namangan 2025

Uslubiy dasturda bitiruvchi kurs talabalari, mutaxassislik kafedralari mudirlari, shuningdek, BMI ilmiy rahbarlari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar yoritilgan.

Uslubiy ko'rsatmani tuzishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyruq va nizomlaridan foydalanildi.

Tuzuvchi:

B.Oripov - Art pedagogika kafedrasini mudiri, dotsent

Taqrizchilar:

A.Amanullayev NamDU, Tasviriy san'at va dizayn kafedrasini professori, p.f.n

N.Suyarov- Art pedagogika kafedrasini dotsenti.PhD

KIRISH

“Bitiruv malakaviy ishi” oliy ta’lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalarining o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 3 yil davomida olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, kengaytirish hamda o‘zlashtirgan bilimlari orqali muayyan ilmiy, texnikaviy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy sohalaridagi muammolarni hal etish, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash maqsadida tayyorlaydigan ilmiy ishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yiladigan talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 225-sonli buyrug‘i bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash va bajarishga qo‘yiladigan talablarni belgilab beruvchi asosiy me‘yoriy hujjat hisoblanadi. Mazkur buyruqda bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari, mavzusi, bajarilishi, bitiruv malakaviy ishni bajarishga rahbarlik qilish, va bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartiblari to‘liq bayon qilingan.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNING TUZILISHI VA MAZMUNI

Bitiruv malakaviy ishni talabalar bitiruv kursi davomida bajaradilar. Bitiruv malakaviy ish malakaviy faoliyat bo‘lib, u talabaning nazariy va amaliy bilimlarni o‘zlashtirganligini hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilashning muhim omili hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida talaba:

- tanlangan ilmiy mavzuning dolzarbligini asoslashi;
- tadqiqotning maqsadi va uni amalga oshirishda hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni aniqlashtirishi;
- tadqiqot predmeti va ob‘yektini aniqlashi va tavsiflashi;
- tadqiqot natijalarini tahlil qilishi va qayta ishlashni olib borishi;
- xulosalar chiqarishi, olingan natijalarni baholashi va ilmiy tadqiqoti bo‘yicha takliflar berishi lozim.

Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:

- titul varag‘i;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qism (mavzuning batafsil bayoni);
- xulosa;
- foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati;
- bitiruv malakaviy ish bilan bog‘liq ilovalardan iborat bo‘ladi.

Titul varag‘i bitiruv malakaviy ishning birinchi sahifasi hisoblanadi va u belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi. Titul varag‘idan keyin mundarija keladi.

Mundarija qismida bitiruv malakaviy ishning boblari, paragraflari va bandlari keltiriladi. Bitiruv malakaviy ishning boblari, paragraflari va bandlarining nomlari

qisqartirilmaydi va asosiy matn sarlavhasiga muvofiq tarzda berilishi zarur. Mundarijadan keyin ishning kirish qismi keladi.

Kirish qismida quyidagilar keltirilishi shart:

- bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va ahamiyati;
- mavzuning oldiga qo‘ygan maqsadi va undan kelib chiqadigan vazifalar;
- mavzuning o‘rganilganlik darajasi;
- tadqiqotning ob‘yekt va predmeti;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning tarkibiy tuzilishi;
- tadqiqot bo‘yicha chop qilingan maqola va tezislarning manbalari (bu band faqat maqola nashr qildirganlarga tegishli).

Kirishning umumiy hajmi A4 format varaqda kamida 3 bet ko‘pi bilan 6 bet bo‘lishi mumkin.

Asosiy qismda o‘rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy jihatlari boblarga va paragraflarga ajratilgan holda bayon qilinadi. Bitiruv malakaviy ishning matnini bayon qilish tartibi alohida qism sifatida keltirilgan. Asosiy qismdan keyin ishning xulosa qismi keladi.

Xulosada talaba tanlagan mavzusi bo‘yicha nazariy va amaliy shart-sharoitlarni o‘rganib, mavjud muammolarni bartaraf qilish va jarayonni yanada faollashtirish borasida qisqa, aniq va lo‘nda fikrini muxtasar shaklda bayon qiladi. Bitiruv malakaviy ishda xulosaning hajmi A4 format varaqda kamida 3 bet ko‘pi bilan 6 bet bo‘lishi mumkin. Xulosadan keyin foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati bitiruv malakaviy ish muallifi tomonidan foydalanilgan barcha rasmiy hujjatlar, ilmiy manbalar, statistik va tahliliy materiallar, shuningdek, ilmiy maqola va tezislar to‘plamidan tashkil topadi. Adabiyotlar va ulardan foydalanish tartibi alohida qismda keltirilgan.

Ilovada mavzuni yoritish uchun to‘liq foydalanilmaydigan ma’lumotlar, jadvallar, grafiklar, rasmiy hujjatlar nusxalari, diagrammalar keltiriladi va belgilangan tartibda ketma-ketlik asosida raqamlab chiqiladi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI TAYYORLASHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va rasmiylashtirishda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

- bitiruv malakaviy ish bob va bo‘limlarining mazmuni BMIning asosiy maqsadiga mos va talablariga javob berishi lozim;
- BMI matni kompyuterda teriladi;
- BMI umumiy qabul qilingan standart bo‘yicha muqovalanadi;
- BMIning hajmi qat’iy ravishda chegaralanmaydi, ammo uning kompyuterdagi matni hajmi 65-70 bet atrofida bo‘lishi tavsiya etiladi;

- bitiruv malakaviy ish A4 (210x297) formatli oq varaqning bir tomoniga 1,5 interval 14 shriftda yoziladi va uni yozish jarayonida quyidagi hoshiyalar o‘lchamiga rioya qilish zarur:
 - chap tomondan – 3 sm.
 - o‘ng tomondan – 1 sm.
 - yuqoridan – 2 sm.
 - pastdan – 2 sm.
- bitiruv malakaviy ishda keltirilgan barcha jadvallar, grafiklar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar, shakllar va boshqalarning nomi aniq qilib ustiga yoziladi va raqamlab chiqiladi;
- bosma va yozma harflar, daraja va indeksdagi belgilar aniq bo‘lishi lozim;
- jadvallar, rasmlar, chizmalar, grafiklar, fotorasmlar BMI ichida ham ilovada ham standart varaqlarda (A4 formatda) bo‘lishi lozim. Rasmlar skaner yordamida matnning kerakli joyiga qo‘yiladi.
- bitiruv malakaviy ish matnini yozish jarayonida muallifishda keltirilgan barcha ixtiboslar, jadvallar, grafiklar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar, shakllar, boshqa ma’lumotlar va ko‘rgazmali vositalarni ular tegishli joyning o‘zidagina ixtibos (sitata) va havola (snoska) qilishi zarur. Shuningdek, jadvallar, grafiklar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar, shakllar va boshqa ma’lumotlar va ko‘rgazmali vositalarni bayon qilishda matnda ularning tartib raqami ko‘rsatilib izohlanishi kerak. Masalan, “5-jadval, 3-rasm, 4-chizma yoki 2-diagrammada keltirilgan ma’lumotga ko‘ra” iboralarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar va manbalar ro‘yxatini tuzishda quyidagi tartibga rioya qilish zarur:

- birinchi me‘yoriy hujjatlar yillar bo‘yicha ketma-ketlikda beriladi va unda oldin O‘zR Qonunlari, keyin O‘zR Prezidentining Farmon va qarorlari, undan keyin O‘zR Vazirlar Mahkamasining Qaror va farmoyishlari, oxirida O‘zR Vazirliklari va Qo‘mitalarining Qarorlari va nizomlari keltiriladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari keltiriladi;
- mavzuga tegishli ilmiy-uslubiy va nazariy manbalar keltiriladi;
- mavzuga tegishli dissertatsiya va avtoreferatlar keltiriladi;
- jurnallardagi ilmiy maqolalar keltiriladi;
- ilmiy ishlar to‘plamlari va konferensiya materiallari tezislari keltiriladi;
- O‘zR rasmiy idoralari tomonidan chop qilingan statistik to‘plamlar va tahliliy materiallar keltiriladi;
- xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning rasmiy idoralari tomonidan chop qilingan statistik to‘plamlar va tahliliy materiallar keltiriladi;
- bitiruv malakaviy ishda xorijiy tillardagi ilmiy manbalardan foydalanilsa, ularni chet tillardagi adabiyotlar bandi sifatida ajratib, davlat tilida keltirilgan adabiyotlardan keyin tillar bo‘yicha keltirish mumkin. Masalan: a) rus tilidagi manbalar: b) ingliz tilidagi manbalar: va hokazo shaklida.

- kitoblar, ya'ni ilmiy-uslubiy va nazariy manbalar hamda statistik va tahliliy materiallar keltirilganda quyidagi tartibga amal qilish zarur: muallifning familiyasi (to'liq), ismi-sharifi (bosh harflari), nuqta belgisi, kitobning nomi, nuqta, tire, chop qilingan shahar, ikki nuqta, nashriyot nomi, vergul, nashr qilingan yil, nuqta, tire, kitobning "Ixtibos yoki havola" keltirilgan beti. Masalan, Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.30-31.
- jurnal va to'plamlar adabiyotlar manbasi sifatida keltirilganda quyidagi tartibga amal qilish zarur: maqola muallifining familiyasi (to'liq), ismi-sharifi (bosh harflari), nuqta belgisi, maqolaning to'liq nomi, parallel ishorasi, jurnal, to'plam nomi qo'shtirnoqsiz holda, nuqta, chop qilingan shahar, ikki nuqta, nashriyot yoki tashkilot nomi, nuqta, nashr qilingan yil, nuqta, tire, jild soni, nuqta, tire, maqola yoki tezis bosilgan betlar;
- bitiruv malakaviy ish yozish jarayonida foydalanilgan adabiyotning muallifi uch va undan ortiq bo'lsa, boshdagi ikkita muallif yuqorida keltirilgan talab bo'yicha rasmiylashtirilib, qolganlari uchun "va boshqalar" deb yoziladi;

BMI da foydalanilgan adabiyotlarning nomi tarjima qilinmaydi va yozuv imlosi o'zgartirilmaydi, ya'ni lotin imlosidagi manbalar lotin imlosida berilishi zarur.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI RASMIYLASHTIRISHNING YAKUNIY BOSQICHI

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, "Ilmiy rahbar xulosasi" bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. "Ilmiy rahbar xulosasi"da talabaning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Xususan, ilmiy rahbarning xulosasida quyidagilar

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;
- olib borilgan tadqiqotning kafedra ilmiy yo'nalishi bilan bog'liqligi;
- tadqiqot ishining yangiligi;
- talabaning ilmiy ishga yondashuvi va layoqatiga qisqacha tavsif;
- xulosalarning sifati;

BMIga qo'yilgan talablarga mosligi o'z aksini topishi lozim.

Kafedra mudiri o'rnatilgan tartibda malakaviy ishning tayyorgarlik holatini aniqlaydi va taqdim etilgan materiallar asosida, bitiruv malakaviy ishni himoyaga kiritish masalasini kafedra yig'ilishida muhokama qilib, tegishli qaror qabul qilinishini ta'minlaydi.

Himoyaga kiritilgan bitiruv malakaviy ishi fakultet dekani imzosi bilan o'rnatilgan tartib bo'yicha mutaxassislariga taqrizga yuboriladi.

Tashqi taqrizda quyidagilar o'z aksini topishi lozim:

- mavzuning dolzarbligi;
- tadqiqot yangiligining asoslanganligi;
- tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati;
- BMIning mazmuni va tugallanganlik darajasi bo'yicha tanqidiy mulohaza;
- BMIga qo'yilgan talablarga mosligi.

Taqrizlar soha mutaxassislaridan, shuningdek, boshqa oliy ta'lim muassasalarining turdosh kafedra professor-o'qituvchilari hamda sohaga tegishli ilmiy tadqiqot markazlarining ilmiy xodimlaridan olinishi mumkin.

Fakultet dekani BMIning "Taqriz", "Ilmiy rahbar xulosasi" va "Topshiriq" bilan himoya uchun Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etadi.

Talaba tomonidan taqdim etilgan BMI belgilangan me'yorlar darajasida bajarilmagan taqdirda ish kafedra majlisida, ilmiy rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiqlanib, tegishli qaror qabul qilish maqsadida institut rektoriga taqdim etiladi. Talaba himoya kunidan 10 kun oldin quyidagi hujjatlarni bitiruv malakaviy ishi bajarilgan kafedraga taqdim qilishi shart:

1. BMI ni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, taqdim qiladi.
2. Ilmiy rahbar xulosasi.
3. Tashqi taqriz.
4. BMIning kafedrada muhokama qilinganligi va Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi yig'ilishida himoya qilishga tavsiya etilganligi to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma.
5. Talaba BMI bo'yicha 5-7 bet hajmda kompyuterda annotatsiya yozadi va 6 nusxada kafedraga taqdim qiladi.
6. Xulosa va taqriz hajmi 1,5-2 betni tashkil etishi kerak.
7. Ilmiy rahbar xulosasi, Tashqi taqriz, Topshiriq va BMIning kafedrada muhokama qilinganligi va Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi yig'ilishida himoya qilishga tavsiya etilganligi to'g'risidagi bayonnomadan ko'chirma BMI muqovasining ichki tomoniga konvertga solib yelimlanadi.

4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqariladigan masalalar ro‘yhati)

5. Chizma ishlari ro‘yhati (chizmalar nomi aniq ko‘rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo‘yicha maslahatchi (lar)

№	Bo‘lim mavzusi	Maslahatchi o‘qituvchi F.i.sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv ishi bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o‘tganlik belgisi	

Bitiruv ishi

rahbari _____

(familiyasi, ismi, sharifi) imzo

Topshiriqni bajarishga oldim _____

familiyasi, ismi, sharifi)imzo

Topshiriq berilgan sana 20 __yil

2-ilova Bitiruv malakaviy ishi rahbar xulosasi va taqrizlar

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ANIQ VA TABIIY FANLAR FAKULTETI
ART PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

ning

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

BMI RAHBARI XULOSASI

Rasmiylashtirilishi

Ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

Xulosa

BMI rahbari

Sana: " " 2026 yil

Imzo

3-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i namunasi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ART PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

«Himoyaga ruhsat etildi»

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani

_____ T.Abdullayev

«__» _____ 2025 y.

**60111200-Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
ALIYEV VALI G'ANI O'G'LINING**

**“MILLIY BUYUMLARDAN TUZILGAN NATYURMORT
KOMPOZITSIYASINI ISHLASH” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

Art pedagogika kafedrasi mudiri

_____ **O'. Abdullayev**

«__» _____ 2025 y.

BMI rahbari: o'qituvchi

_____ **V.Aliyev**

Namangan – 2026

4-ilova. Bitiruv malakaviy ishi mundarijasi

MUNDARIJA

Kirish.....

Birinchi bob.....

1.1.....

1.2.....

1.3.....

Ikkinchi bob

2.1.....

2.2.....

2.3.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.....

Ilovalar

5-ilova. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash, rasmiylashtirish va himoyaga tavsiya etish jadvali

№	Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash bosqichlari	Bajarish muddati
1.	BMI mavzularini tanlash	oktyabr oyining ikkinchi yarmi.
2.	BMI mavzulari bo'yicha talabalarga ilmiy rahbarlarni biriktirish	noyabr oyining birinchi yarmi.
3.	Ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlangan BMI rejasi va ish qisqacha mazmunining kafedraga taqdim etilishi	noyabr oyining ikkinchi yarmi.
4.	Talabanning o'z ilmiy rahbari bilan ishlashi (ilmiy rahbar tomonidan BMIning yozilish holati bo'yicha har kafedra yig'ilishida hisobot beriladi, BMI bajarilishi foizlarda hisoblab boriladi)	dekabr, yanvar, fevral oylari
5.	BMIning birinchi himoyasi	mart oyining birinchi yarmi
6.	BMIning nazariy qismida berilgan ma'lumotlarni amaliyot bilan bog'lab, amaliy ma'lumotlar bilan boyitish	aprel oyining birinchi yarmi
7.	BMIning ikkinchi himoyasi	aprel oyining ikkinchi o'n kunligi
8.	BMIning belgilangan me'yoriy talablar asosida rasmiylashtirish (jadvallar, slaydlar, taqrizlar)	aprel oyining so'nggi o'n kunligi.
9.	BMilar himoyasini o'tkazish	may oyining ikkinchi o'n kunligidan boshlab

6-ilova. Talabaniy bitiruv malakaviy ishini baholash MEZONLARI

Bitiruvchi 10-15 daqiqa davomida Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi (YaDAK) oldida bitiruv malakaviy ishining maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda o'z tavsiyalari va takliflari to'g'risida chiqish qiladi. Shundan so'ng talaba bitiruv malakaviy ishi mavzusi doirasida komissiya a'zolari savollariga javob beradi. Bitiruv malakaviy ish komissiya tomonidan ilmiy rahbar va taqrizchi xulosasi va bitiruvchining javoblari asosida quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi va ballar baho ko'rinishiga o'zgartiriladi:

№	Baholash mezonlari	Ballar taqsimoti	Talaba to'plagan ball
1	Mavzu dolzarbligi, maqsad va vazifalarining asoslanganligi	6-10 ball	
2	Mavzuning ilmiy-ijodiy asoslanganligi	5-10 ball	
3	Nutq madaniyati va muammo yoritilishining mantiqiyiligi	8-15 ball	
4	Asosiy xulosalarning ilmiy yangiligi	8-15 ball	
5	Ijodiy ishini bajarilishi va yoritib bera olishi	10-20 ball	
6	BMI ning qo'yilgan barcha talablarga mos rasmiylashtirilganligi (ilmiy apparat)	6-10 ball	
7	Himoya jarayonida texnik-elektron (jadvallar, slaydlar va h.k.) vositalardan foydalanilganligi	6-10ball	
8	Savollarga to'liq va asoslangan javoblarning berilishi	6-10 ball	
	Umumiy baxo	55-100 ball	/

Ballar quyidagicha baho ko'rinishiga o'zgartiriladi :

56-70 ballgacha - 3 baho,

71-85 ballgacha - 4baho,

86-100 ballgacha-5 baho

55 balldan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz baho

BMI ni baholashda talabaniy institutdagi 3 yillik tahsili davomida ko'rsatgan o'rtacha o'zlashtirish darajasi, intizomi, xulqi va jamoat ishlarida faol qatnashganligi, shuningdek, chop ettirgan ilmiy maqola va tezislari, fan olimpiadalaridagi ishtiroki va undagi muvaffaqiyati kabi omillar ham e'tiborga olinadi.

Bitiruv malakaviy ishi uchun tayyorlangan ijodiy ishning o'lchami 120x80 yoki mavzudan kelib chiqib, undan kattaroq bo'lishi mumkin.

